



MIRZO ULUG'BEK 628 YILLIGI

“ILM-FAN VA TA'LIMDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR,
MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”

KO'P TARMOQLI 22-SONLI RESPUBLIKA
ILMIY-ONLAYN

KONFERENSIYASI

01 ANIQ VA TABIIY FANLAR

PEDAGOGIKA FANLARI 02

03 IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR

FILOLOGIYA FANLARI 04



OPEN  ACCESS

 Crossref  doi



FARG'ONA VILOYATI, FARG'ONA SHAHRI
ISTE'DOD KO'CHASI 1-UY, 1-XONADON



+99891-152-93-14



WWW.ACADEMIASCIENCE.ORG

“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 22-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI



“ACADEMIA SCIENCE”

“UzACADEMIA”

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

ISSN (E) – 2181 – 1334

“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA
YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 22-SONLI RESPUBLIKA
ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

30-MART, 2022-YIL

1-QISM

MATERIALS OF THE 22TH REPUBLICAN SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE ON “INNOVATIVE APPROACHES, PROBLEMS,
SUGGESTIONS AND SOLUTIONS IN SCIENCE AND EDUCATION”

30 MARCH 2022

PART-1

Google Scholar

I^{WORLD} of
JOURNALS



www.academicscience.uz

“UzACADEMIA” scientific-methodical journal

www.academiainscience.uz

1.	Sobirova Mavjuda O’tkir qizi, Jumaniyozova Iqbol Otaboyevna BOLA SHAXSINI RIVOJLANISHIDA OILA VA MAKTABNING ROLI	8
2.	Mamaroziqov Umidjon Baxtiyorovich, Berdimuratova Mavluda Raxmonkulovna, Xidirova Nazira Qudratovna, Karimov Rixsiboy Kuchkarovich НАПЛОПHYLLUM PERFORATUM L.O’SIMLIGINING EKSTRAKSIYA SHAROITLARINI O’RGANISH	10
3.	Зокирова Умида Толибовна, Хидирова Назира Кудратовна VITASEAE OILASIGA MANSUB VITUS VINIFERA TOK U’SIMLIGI YANGI NAVLARI BARGLARINING POLIIZOPRENOIDLARI	13
4.	Обиджонов Жахонгир Тоҳир ўғли, Раҳимов Шавкат Турдимуротович АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ДИСПЕРСНО-АРМИРОВАННЫХ БЕТОНОВ	16
5.	Rajapova Hulkaroy IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA MUHABBAT TALQINI	20
6.	Abdullayeva Muazzam Nabiyevna “BUMERANG” TEXNOLOGIYASI	24
7.	Ravshanova Dilfuza Salimovna, Raximova Ruxsora Hamzaevna MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODLARI VA USULLARI	26
8.	Hayitova Dilnoza Mardonovna, G’ulomova Nurbika G’ayratovna AN’ ANAVIY O’YINLARNI KOMPYUTERDA BAJARISH IMKONIYATLARI	29
9.	Doniyeв Sardor Ixtiyor o’g’li O’ZBEKISTON VA HINDISTON RESPUBLIKALARI DIPLOMATIK ALOQALARI TARIXI	32
10.	Ergashova Hamida Esan qizi FIZIKA FANINI O’QITISHDA STEAM TEXNOLOGIYASI	35
11.	Hamroqulova Robiyaxon Rasuljon qizi FAXRIDDIN ROZIY ILMIY MEROSINING HOZIRGI DAVR UCHUN AHAMIYATI	38
12.	Jo`rayeva Feruza Muhammadovna, Jusipbekovna Margarita Nurkalievna O’RTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN RASM CHIZISHNING NOAN’ ANAVIY USULLARI	41
13.	Darvishova Gulchehra Kenjabayevna UNIQUE WRITING STYLE IN JANE EYRE BY CHARLOTTE BRONTE	44
14.	Haydarova Gulnoza Ibragimovna MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA AN’ ANAVIY HAMDA KOMPYUTERLI RIVOJLANTIRUVCHI O’YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	47
15.	Haydarova Gulnoza Ibragimovna, Ro`ziyeva Shoxsanam Norovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR TURLARINING SHAKLLANISHI	50
16.	Ro`ziyeva Gulnoza To`lqin qizi, To`xtayeva Gulbahor Ulug`bekovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN DIDAKTIK O’YINLAR	53
17.	Tillyashaykhova M.A., Samigova G.A. INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES	56
18.	Маматова И.Ю. ВЛИЯНИЕ ПИЩЕВОЙ ДОБАВКИ «САНЖАМ» НА ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНЫЙ ТРАКТ	62
19.	Boborajabova Komila Yusupovna, Raxmatova Gulshan Sirojiddin qizi MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA KOMPYUTERLI O’YINLARNING TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI	66
20.	Kurbonova Lola Normamatovna BOSHLANG'ICH SINIF ODOBNOVA DARSLARIDA MILLIY TILIMIZGA VA	68

**“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 22-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI**

QADRIYATLARGA E’TIBOR		
21.	Nurmatova Nargiza Ulug’bekovna O’QUVCHI-QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASASI HAMKORLIGINING O’RNI	72
22.	Turayeva Lutfiya Farxodovna, Isamova Nigina Baxtiyorovna SYUJETLI-ROLLI O’YINLAR VA DRAMMALASHTIRISH MARKAZI	76
23.	Urakov Mamural Odil oglu LABOR MARKET DEVELOPMENT TRENDS AND PROSPECTS	78
24.	A.Egamqulov INTERPOLYATSION KUBATUR FORMULALAR QURISH	82
25.	Jalilova Mo’tabar Muxtorovna ILK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANITIRISHDA TA’LIMIIY O’YIN VA MASHG’ULOTLAR	87
26.	Qo’ldosheva Zulfiya G’aybullayevna O’ZBEKISTON YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI GA SARALASH	90
27.	Sharipova Aziza Abdujabborovna MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARDA ILK MATEMATIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI	93
28.	Kayumova Marxabo Tojiyevna, Axmedova Mahliyo Hamidovna BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI	96
29.	Nosirova Mohinur Komilovna, Dauletova Gulsina Abdiualiyevna MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH DASTURINI AMALGA OSHIRISH VOSITALARI	99
30.	Botirova Muattar Ilhomjonovna SALOMATLIK HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA SALOMATLIK VA TA’LIM- TARBIYA	101
31.	Ochilova Muxayyo Atoyevna, Komilova Dilrabo Normurodovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HUQUQIIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYAVIIY TADBIRLARNING O’RNI	103
32.	Tursunova Muxayyo Raxmonovna, Kadirova Guljayna Keulimjanovna BOG’CHALARDA BOLALARNING HAYOTI VA SOG’LIG’INI MUHOFAZA QILISH TARTIBI TASDIQLANADI	105
33.	Ro’zieva Nargiza Sabrididinovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIIY TA’LIMI VA RIVOJLANISHI	108
34.	Komilova Nargiza Komilovna, Egamova Mohira Haydarovna MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA’LIMNING NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI	110
35.	Nurbayeva Muharam Raxmatovna BIOLOGIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O’YINLARNG AHAMIYATI	112
36.	Kuchqorova Shahodat Ro’ziyevna, Karimova Sadoqat Amrillovna OLIIY TA’LIM RIVOJLANISHIDA AXBOROT VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING AMALDAGI ROLI	116
37.	Shahobiddinova Oydinoy Abdurahmon qizi HOW TO PLAN & WRITE OPINION ESSAYS	120
38.	Dadaxo’jayeva Muazzamoy Xayotilloxon qizi BOSHLANG’ICH TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI	123
39.	Z.D. Rasulova TALABALARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O’RGATISH TEXNOLOGIYALARI	126
40.	Rasulova Zilola Durdimurotovna OLIIY TA’LIM MUASSASALARI O’QUV JARAYONLARINI INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI	129

**“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 22-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI**

41.	Z.D.Rasulova BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AXBOROT OLISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	133
42.	Dadajanova Dilbar, Xudoyberdiyeva Zumrad BOSHLANGICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH USULLARI VA SHAKLLARI	137
43.	Xolboyeva Sadoqat Isroilovna, Hamidova Mehriniso Jamshidovna BOLA RIVOJLANISHI DINAMIKASIDA KINEZIOLOGIYANING TA’SIRI	140
44.	Pirmatova Saodatxon Tolibovna, Nishonova Ra’noxon Abdullojon qizi CHET TILLARNI O‘QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLIGIYALARDAN FOYDALANISH	143
45.	Raupova Savlat Akramovna, Odinayeva Olima Xomitovna MATEMATIKA FAOLIYATLARINI O‘TKAZISHGA QO‘YILGAN TALABLAR	146
46.	Hamroyeva Durдона Ilhomovna, Isoqova Shalola Vaxobovna “FAN VA TABIAT” RIVOJLANTIRISH MARKAZI	148
47.	Abdinazarova Shaxnoza Xolmo`min qizi, Ravshanova Dilfuza Salimovna O‘YIN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING YETAKCHI FAOLIYATI SIFATIDA	150
48.	G. E. Karlbaeva ¹ , A. A. Yeraliev ² JAQTILIQNING TOLQIN UZINLIGINING DIFRAKTSIYALIQ RESHYOTKA JARDEMINDE ANIQLAWDINING LABORATORIYALIQ USULI	152
49.	Turayeva Dilnoza Davlatovna O‘QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISHDA AKTDAN FOYDALANISH	155
50.	Boltaboyev Omonboy Yo‘ldosh o‘g‘li PIRIMQUL QODIROVNING “AVLODLAR DOVONI” ROMANIDA TUSH TASVIRI	159
51.	Umarova Muxabbatxon, Ashuraliyeva Gulhumor, Zaripova Ra‘no, Madaminova Maxfuza MENINGIT KASALLIGINING KELIB CHIQISHI, PROFILAKTIKASI, YUQISH YO‘LLARI VA DAVOLASHDA TURLI HIL YO‘LLARDAN FOYDALANISH	162
52.	Yadgarova Umida Nayimovna MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALAR RUHIYATINI O‘RGANISHNING BUGUNGI HOLATI	165
53.	Qilicheva Vasila Uzoq qizi, Bahriddinova Nasiba O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILINGAN SHE‘RLARNING TRANSFORMATSİYALARI	168
54.	Xakimova Gulbahor Ahmadjonovna, Karimova Madina Abduvaxidovna MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA CHET TILLARINI O‘QITISHNING DOLZARBLIGI	172
55.	Abdurasulov Otabek Hatam o‘g‘li YADRO REAKSIYALARI VA NEYTRONNING KASHF ETILISHI	175
56.	F. Tursunov, Axmadjonova Shaxnozaxon Yarkinovna YOSHLAR TARBIYASI—MILLAT KELAJAGI	178
57.	Fayzulloyeva Zarina Farxod qizi, Rajabova Moxinur Bahodir qizi RIVOJLANISH MARKAZLARIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHI OTA-ONALAR BILAN HAMLORLIK ISHLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	182
58.	Мамбеткаримов Байнияз ¹ , Мухиятдинов Нуратдин ² АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ЎҚУВ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	184
59.	Малика Бабаджанова ТАРБИЯНИНГ ҚУДРАТЛИ КУЧИ	189
60.	Baybayeva Muxayyo Xudaybergenovna, Yuldasheva Dilmora Shamsutdin Qizi BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH	191

**“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 22-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI
TALABALARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O’RGATISH
TEXNOLOGIYALARI**

Z.D. Rasulova
Buxoro davlat universiteti
Texnologik ta’lim kafedrası dotsenti


***Annotatsiya:** Maqolada talabalarning tanqidiy fikrlash orqali ularda yangi tasavvurlarni paydo qilish ularning ilgari bilim va tasavvurlarini tiklashga yordam berib, yangi axborotlarni uzoq muddatga tushunish uchun keng asoslar yaratish kabi masalalar yoritilgan.*

Tanqidiy fikrlashga o’rgatish Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bayon etilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol hayotda o’z o’rnini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi. Bu tushuncha haqida gapirishdan oldin, ayrim aqliy faoliyat ko’nikmalarini ko’rib chiqaylik, lekin ularni tanqidiy fikrlash deb bo’lmaydi. Esda saqlash - eng muhim fikrlash jarayoni bo’lib, busiz o’quv jarayonini amalga oshirib bo’lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi. Ko’pchilik o’qituvchilar har qanday fikrlashdan ko’ra xotirani rivojlantirishni yuqoriroq qadrlaydilar, nazorat ishlari va imtihonlarda asosan talabalar xotirasi ko’lamini tekshiradilar. Lekin tanqidiy fikrlash tarafdorlari esa aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini nazarda tutadi.

Tushunish, ayniqsa, agar o’quv materialini qiyin bo’lsa, murakkab aqliy jarayon bo’lib hisoblanadi. Masalan, talaba murakkab teoremani tushunish uchun bosh qotirmoqda. Albatta uning miyasida murakkab aqliy jarayonlar kechadi, lekin buni ham hozircha tanqidiy fikrlash deb bo’lmaydi. Biz o’z g’oyalarni fikrini tushunish ustida ishlar ekanmiz birinchi bosqichda bizning shaxsiy fikrlashimiz sust bo’ladi: bunda biz faqat bizgacha kimdir tomonidan yaratilganni idrok qilamiz xolos, tanqidiy fikrlash esa, yangi, tushunib bo’lingan g’oyalar tekshirilayotganda, baholanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo’llanayotganda sodir bo’ladi. Dalillarni eslab qolish va g’oyalarni tushunish esa tanqidiy fikrlash uchun zarur bo’lgan dastlabki shartlar bo’lib hisoblanadi, lekin ular o’zaro yaxlitlikda ham tanqidiy fikrlashni anglatmaydilar.

Talabalarning fanlarga oid tanqidiy «Tanqidiy fikrlash» tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu – ijodiy yoki ichki his bilan (intuitiv) sezib

fikrlashdir. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo‘ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham.



Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki talabalar sust tinglovchi bo‘ladi, ularda o‘qituvchi bilimli yoki matnda uning bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlariga o‘qituvchi mas’ul degan ishonch shakllanib boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida fikrlari va o‘z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. Fikrlash jarayoni talabalarning o‘zaro bir-birlari bilan fikr aalmashinishlarini ko‘zda tutadi. O‘zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlari tizimini so‘rovchiga zo‘rlab o‘tkazish va boshqa so‘zlovchilar fikrini tuzatib turishdan o‘zini tiyib turish ham talab etiladi.

“Tanqidiy fikrlash” atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni xilma-xil tarzda tushunadilar. Ko‘pchilik o‘qituvchilar va metodistlar uchun tanqidiy fikrlash “yuqori tartibdagi” fikrlashni bildiradi - yuqori degani shu ma’nodaki, U Benjamin Blum tizimiga ko‘ra o‘rganish qobiliyatlarining so‘nggi oliy pog‘onasida turadi. Faylasuflar tanqidiy fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko‘nikmalarini tushunadilar, uning yordamida talabalar diqqat bilan o‘qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o‘z fikrlarini aniq va o‘ylab ifoda etish imkonini oladilar. Adabiyot nazariyotchilari va tarixchilar uchun matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxonga ta’sir qilish usullarini tanqidiy qayta mushohada qilishga xamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sababalarni aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish “tanqidiy” deb hisoblanadi.

- Tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun uchun quyidagilar bo‘lishi kerak:
 - ✓ talabada o‘ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish;
 - ✓ bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
 - ✓ murakkab muammolarni yechish mahorati;
 - ✓ bahsni dalillab olib borish;

- ✓ yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati;
- ✓ qarashlar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta'sir qilishini tushunish.

Bunda odam bu g'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi. Tanqidiy fikrlash - g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro'y beradigan jarayon ham bo'lib hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiylanayranglar kamroq ta'sir qiladi, o'zining shaxsiy qarashlar tizimi bo'lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo'ladi.

Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo'lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi. Tanqidiy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash ta'lim jarayoniga jo'shqinlik baxsh etadi, mashg'ulotlarni o'qituvchi va talaba uchun quvonchga aylantiradi.

Hozirda talabalarni o'qishga o'rgatish va tanqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Yangi axborotlarga duch kelar ekan, talabalar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtai-nazardan qarashi, undan o'z ehtiyoj va maqsadlari yo'lida foydalana olish imkoniyati to'g'risida xulosa yasay olishlari zarur. Haqiqiy tanqidiy fikrlaydigan odam bo'lib yetishish uchun talabalar ijodiy fikrlab, o'zini sinab ko'rishi va bunga oid malakalarni egallashi zarur.

Xulosa. Talabalarni haqiqatan ham dolzarb muammo haqida fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, balki ularni tezda faol o'ylash jarayoniga kirishishga va tajribada amalga oshirishga imkon beradigan texnologiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Tanqidiy fikrlash talabalarga hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga, jamoaning ochiq fikrini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / Xalq ta'limi" jurnali, 2006, № 6. 17-20 b.
2. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное Образование 1998.